

MEHR BILAN OCHILADIGAN QALBLAR, OG'IR TARBIYA ORTIDAGI SIR

ISMATULLAYEVA AZIZA MIRZOHID-QIZI

Kattaqo'rg'on shahar politexnikumi
ona tili va adabiyot

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mehr bilan yondashilganda qalblari ochiladigan "qiyin bolalar"ning tarbiyasiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda og'ir tarbiyaga duch kelayotgan bolalarning xulq-atvori, ichki potentsiali va ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillar amaliy misollar orqali tahlil qilinadi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir" degan fikri, Alisher Navoiy she'riy merosidagi ma'naviy g'oyalar asos qilib olinib, tarbiya jarayonida mehr-muhabbatning o'rni tahlil qilinadi. Bolaning qiyin xulqi emas, balki unga to'g'ri yondashuv natijasida ochiladigan iqtidor, ijodkorlik va insoniy fazilatlari asosiy yo'nalish qilib ko'rsatiladi. Shuningdek pedagogik yondashuvlar, mehr-muhabbat va individual e'tibor orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni keljakda iqtidorli shaxs sifatida shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *qiyin bola, og'ir tarbiya, mehr bilan yondashuv, ijtimoiy muhit, pedagogik metodlar, iqtidor, individual e'tibor, bola psixologiyasi.*

KIRISH

Hozirgi ta'lif-tarbiya jarayonida, qiyin bolalar (intizomsiz o'quvchilar) bilan ishslash pedagogik amaliyotning eng murakkab va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ko'pincha bunday bolalar tartibsiz, qo'pollik qiluvchi yoki e'tiborsiz deb baholanadi, biroq ularning xulq-atvori ortida ko'pincha ichki potentsial, qiziqish va iste'dod yotadi. Muhimi, ular bilan ishslashda qat'iy jazolar va cheklovlari o'rniga mehr, sabr va yakka tartibdagi yondashuv qo'llanilishi kerak.

Insoniyat tarixida tarbiya masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Har bir davrda, har bir xalq o'z kelajagini farzandlari tarbiyasi bilan bog'lagan. O'zbek ma'naviy

merosida ham bola “muammo” sifatida emas, balki imkoniyat manbai, kelajakning poydevori sifatida qaralgan. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani millatning hayoti bilan tenglashtiradi: **“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”**. Bu fikr bolaning qanday tarbiya olishi butun jamiyat istiqboliga bevosita ta’sir ko‘rsatishini chuqr anglatadi.

Alisher Navoiy ham bolalar qalbini mehr ila ochishning quadratini ta’kidlab, yosh avlodning ko‘ngliga ilm, odob va insof urug‘ini ekishni eng buyuk fazilat sifatida ulug‘lagan. Demak, bola hech qachon og‘ir yuk emas, balki tarbiya orqali shakllanadigan eng yuksak imkoniyatdir. Har bir bola qalbi mehr eshididan kirilganda ochiladi, to‘g‘ri yo‘naltirilganda esa, jamiyatni taraqqiyotga eltuvchi buyuk kuchga aylanadi.

E’tibor bilan yondashish bolani tushunish, do’stona suhbat qurish, uning ehtiyojlarini qondirish va ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish imkonini beradi. Shu sababli, qiyin deb hisoblangan bolalarning tarbiyasi nafaqat murakkab vazifa, balki ularda yashirin iqtidorlarni rivojlantirish, kelajakda ijobi shaxs sifatida shakllantirish imkoniyati sifatida qaraladi.

Har bir bolaning qalbida kashf qilinmagan olam, ochilmagan iste’dod, uyg‘otilmagan orzu yashirinadi. Bu imkoniyatni yuzaga chiqarishning eng to‘g‘ri yo‘li – mehr bilan tarbiya qilishdir. Mehrsiz tarbiya quruq buyruqqa, shafqatsiz nazoratga aylanib qoladi, mehr bilan yo‘g‘rilgan tarbiya esa bolaning qalbini ochadi, unga ishonch va quvvat beradi.

Ushbu maqolada mehr bilan ochiladigan qalblar, qiyin bolalar deyilganda mazmunan bolalarning xulqini tushunish, ularni ijobi tarafga yo‘naltirish hamda tarbiyaviy amaliyotda bola bilan alohida ishlash, aynan shunday o‘quvchilarga diqqatni qaratish, maqtovlar aytish samaradorligini ko‘rsatishga qaratilgan.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mehr bilan yondashilganda bunday bolalar qalblarini ochadi va yashirin iqtidorlarini namoyon qiladi. Masalan, dars jarayonida

doimiy e'tiborsizlik qiluvchi o'quvchi bilan suhbat qurish va uning fikrini tinglash, orqali u o'zini qadrlangan his qiladi va diqqatini jamlay boshlaydi.

Agar bola ijodiy faoliyatga qiziqsa, unga rasm chizish, qo'l mehnati yoki musiqa bilan shug'ullanish imkoniyatini berish samarali bo'ladi. Bu bolaga nafaqat o'z qobiliyatini namoyon qilishga yordam beradi, balki ichki tartibini shakllantirish va energiyasini ijobiy tomonga yo'naltirish imkonini beradi. Masalan, o'quvchini maktab ko'rgazmasiga ish tayyorlashga jalb qilish uning mas'uliyatini oshiradi va ijtimoiy ko'nikmalarini oshiradi.

Oila muhitida amaliy yondashuvning ahamiyati katta. Bola bilan birga uy ishlarini bajarish, kichik mas'uliyatlar berish va uning fikrini qadrlash orqali u o'zini qadrli his qiladi. Masalan, uy gullarini sug'orish, stolni tayyorlash yoki kichik yordamchi vazifalarni bajarish bolani tinchlantiradi va uning xulqini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Amaliy misol sifatida, o'quv jarayonida bolaga faqat xato qilganini aytish emas, balki uni to'g'ri yo'lga yo'naltirish samaraliroq bo'ladi. Masalan, matematikada masala yecha olmayotgan bola ustida turib dashnom berish uning qalbini yopadi, ammo xuddi shu vaziyatda mehr bilan "Sen buni qila olasan, keling, birga urinib ko'raylik" deyish uning ichki kuchini uyg'otadi. Shu tarzda bola o'zida ishonch hosil qiladi va kelajakda yanada katta marralarni zabit etadi.

Sport va jismoniy mashg'ulotlar ham albatta samarali. Futbol, basketbol yoki erkin harakatli o'yinlar bolaning tartibsiz energiyasini foydali faoliyatga yo'naltiradi, jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi va uning o'zini muhim shaxs sifatida his qilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, sport orqali bola sabr-toqat, intizom va muvofiqlikni o'rGANADI.

Maktab va mahalla tadbirlari ham bola qalbini ochishning amaliy yo'li hisoblanadi. Bolani mahalla bayramlari, san'at yoki sport musobaqalariga jalb qilish uning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, noto'g'ri xatti-harakatlarga moyilligini

kamaytiradi va o‘z iste’ dodini namoyon etish imkonini beradi. Zero o‘quvchi jamoaviy qo‘sish yoki sahna chiqishida muhim rolni bajarib, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Shu tariqa, qiyin deb hisoblangan bolalar bilan ishlashda muammoni omma oldida emas alohida suhbat asosida bartaraf etish asosiy vosita hisoblanadi. Pedagog va ota-onaning sabr-toqat bilan ishlashi, rag‘bat va ijobiy motivatsiyasi orqali har bir bola o‘z iqtidorini namoyon qilishi, xulqini tartibga solishi va kelajakda ijobiy shaxs sifatida shakllanishi mumkin.

Ijodiy faoliyat orqali o‘zini ifoda etish ham samarali yo‘ldir. Masalan, rasm chizishga qiziqadigan o‘quvchi uchun maxsus vaqt ajratish uning sinfdagi xatti-harakatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Yaponiya maktablarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy faoliyat bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, xulq-atvorini tartibga soladi.

Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik bolalar bilan ishlashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, ota-onalar o‘qituvchilar birgalikda o‘quvchining muammolarini aniqlab, qo‘llab-quvvatlash orqali uning xulqini ijobiy tomonga o‘zgartirishgan. AQSh tadqiqotlari ham shuni ko‘rsatdiki, oila va maktab o‘rtasidagi muntazam aloqalar bolalarning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Emotsional intellektni rivojlantirish ham muhimdir. Jumladan doimiy bezovta qiluvchi o‘quvchiga hissiy intellekt mashqlarini o‘rgatish orqali u o‘z ichkituyg‘ularini boshqarishni o‘rganib, sinfdagi xatti-harakatlarini yaxshilaydi. Kanadadagi tadqiqotlarni kuzatsak, bola ichki intellektini rivojlantirish bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradi, salbiy xatti-harakatlarni kamaytiradi.

Davomiylik sabr-toqat bilan ishlash ham samarali amaliy yechimdir. Sinfda bezovta qiladigan o‘quvchi bilan bir necha oy davomida sabr bilan ishlash natijasida uning xulqi ijobiy tomonga o‘zgardi.

Muhit	Muammo ko‘rinishi	Amaliy yondashuv	Natija
Oila	Bola uyda tez charchaydi, ota-onaning talablariga qarshi chiqadi, tez jahldor bo‘ladi	Bola bilan muntazam dialog, uning fikrini tinglash va qadrlash, kichik mas’uliyatlar berish: stolni yig‘ish, gullarni sug‘orish; u bilan birga ijodiy mashg‘ulotlar (rasm, musiqa)	Bola o‘zini qadrlangan his qiladi, mas’uliyat hissi rivojlanadi, xulqi ijobiy tomonga o‘zgardi, ijodiy qobiliyatlar namoyon bo‘ladi
Maktab	O‘quvchi darsda shovqin soladi, topshiriqlarni bajarmaydi, sinfdoshlar bilan moslasha olmaydi	Uni jamoaviy loyiha yoki ijodiy mashg‘ulotga jalb qilish, muhim rol berish, sport va san’at tadbirlarida faoliyatga jalb qilish	Bola o‘zini muhim shaxs sifatida his qiladi, intizomga o‘rganadi, jamoadagi o‘rnini tushunadi, diqqatini jamlaydi
Mahalla	Bola bo‘sh vaqtini behuda o‘tkazadi, noto‘g‘ri do‘stlar bilan o‘tkazadi	Mahalla tadbirlariga jalb qilish, sport va san’at musobaqalarida ishtirokini rag‘batlantirish, hunarmandchilik yoki ijodiy to‘garaklarda faol qatnashish	Bola vaqtini samarali o‘tkazadi, noto‘g‘ri xatti-harakatlarga moyillik kamayadi, ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi
Oila + Maktab	Bola tez jahldor, qiziqmaydi, darsga uy	Uyda va darsda rag‘bat berish, kichik muvaffaqiyatlarini e’tirof etish, sport va ijodiy	Bola o‘zini qadrlangan his qiladi, salbiy xulq kamayadi, motivatsiyasi oshadi,

Muhit	Muammo ko‘rinishi	Amaliy yondashuv	Natija
	vazifalarini bajarmaydi	mashg‘ulotlarga birgalikda jalb qilish	ijtimoiy va ijodiy ko‘nikmalar rivojlanadi
Oila + Mahalla	Bola yolg‘iz va e’tiborsiz his qiladi, do’stlar bilan muloqotda qiyinchilik sezadi	Bola bilan ko‘proq suhbatlar, mahalla tadbirlariga jalb qilish, kichik topshiriqlar berish, sport, san’at va jamoaviy ijodiy faoliyat	Bola ijtimoiylashadi, noto‘g‘ri xattikhakim topshiriqlar berish, harakatlar kamayadi, o‘z iste’dodini namoyon qiladi
Maktab + Mahalla	O‘quvchi darslarda qiziqmaydi, bo‘shevqatini noto‘g‘ri ishlarga sarflaydi	Darsdan tashqari sport va san’at to‘garaklarida qatnashish, mahalliy tadbirlarda mas’ul rol berish, ilmiy loyihalarda ishtirok etish	Bola energiyasini foydali ishlarga yo‘naltiradi, diqqat va intizomi oshadi, ijtimoiy va ijodiy ko‘nikmalar rivojlanadi
Oila + Maktab + Mahalla	Bola bir vaqtning o‘zida e’tiborsiz, tartibsiz va passiv	Hamkorlik: ota-onal, o‘qituvchi va mahalla birgalikda faoliyatga jalb qilish, ijobiy rag‘bat va individual yondashuv	Bola qalbini ochadi, xulqi ijobiy tomonga o‘zgardi, ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlandi, kelajakda iqtidorini namoyon qilish imkoniyati oshdi

XULOSA

Tajriba hamda amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, bolalar aslida katta imkoniyatlarga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Ularning xulq-atvori ortida yashirin iqtidor, qiziqish o'sish istagi yotadi.

Zamonaviy misollarda ham bu fikr o'z tasdig'ini topadi. Masalan, maktablarda o'quvchilar uchun "Iqtidorli bolalar" loyihalari tashkil qilinmoqda. Bu loyihalarda bola o'z qiziqishi bo'yicha yo'naltiriladi: kimdir rasm chizadi, kimdir matematika masalalarida yetakchi bo'ladi, yana kimdir she'riyatda o'z ovozini topadi. Bunday imkoniyatlar shuni ko'rsatadiki, har bir bolaning ichida yashirin olam bor, kasb tanlash, mustaqil qaror qabul qilishda ikkilanmaydigan, o'ziga bo'lgan bahosi oshadigan, o'zini qadrlashni o'rganadigan bo'ladi.

Zero jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanadi. Shunday qilib, qiyin deb hisoblangan bola bilan ishslash murakkab vazifa bo'lishiga qaramay, u **eng katta imkoniyatlarni** ochib beruvchi jarayon sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Farzand tarbiyasi.** Mualliflar: Abdulloh Muhammad Abdulmu'tiy, Akmal Miravaz o'g'li, Said Chamlja Ahmadjon Xolmurodov, Abduhamid Muhammadjonov. Ushbu kitobda farzand tarbiyasining asosiy tamoyillari, ota-onalar va pedagoglar uchun amaliy maslahatlar, shuningdek, bolalar bilan samarali muloqot qilish usullari yoritilgan. (ildizkitoblari.uz)
- Sevimli bolajonim: uyqu-halovat va go'zal tarbiya.** Muallif: Adem Gunesh. Kitobda bolalar tarbiyasida uchraydigan xatolar va ularni tuzatish yo'llari, shuningdek, bolalarning emotsional va ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan. (ildizkitoblari.uz)
- Bolalar tarbiyasi: Uy va oila nuqtai nazaridan.** Muallif: Ubayda Fayziyeva. Ushbu asar bolalar tarbiyasining nazariy asoslari, ota-onalar va pedagoglar uchun amaliy maslahatlar, shuningdek, bolalar bilan samarali muloqot qilish usullari haqida so'z yuritadi. (kitobxon.com)

4. **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati.**

Muallif: Ma'ruzalar to'plami. Kitobda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik va pedagogik asoslari, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar keltirilgan. (inlibrary.uz)

5. **Bolalar va mahalla: Yangi O'zbekiston siyosatidagi o'rinni.** Muallif: Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz. Asarda mahalla tizimining rivojlanishi va yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni, shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil etilgan. (insonhuquqlari.uz)